

Akromov Burxonxo'ja Baxodirovich

O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti xodimi

Email: ikramovilhom@gmail.com

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasalari tadbirkorlik faoliyatida erishilgan natijalar va yurtimizda jazoni ijro etish tizimida tadbirkorlik faoliyatini olib borishdan maqsad va vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jazoni ijro etish, tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish, Tadbirkorlik huquqi.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПЕНИТЕНЦИАРНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье освещаются результаты, достигнутые пенитенциарными учреждениями в предпринимательской деятельности, а также цели и задачи ведения предпринимательской деятельности в системе исполнения наказаний в нашей стране.

Ключевые слова: Наказание, предпринимательская деятельность, производство, Предпринимательское право.

LEGAL BASIS FOR THE IMPLEMENTATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN PENAL INSTITUTIONS

Annotation: This article highlights the results achieved in the entrepreneurial activity of penal institutions and the goals and objectives of conducting entrepreneurial activity in the penal system in our country.

Keywords: Punishment execution, entrepreneurial activity, production, Entrepreneurial Law.

Bugungi kunda Yurtimizda inson qadrini ulug'lash asosiy maqsad qilib olindi shu ma'noda Jazoni ijro etish tizimida ham mahkumlarni huquqlarini takomillashtirish ularni ish bilan ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 445-son qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi:

– jazoni ijro etish muassasalariga litsenziya talab etiladigan ayrim faoliyat turlari bilan birgalikda tegishli litsenziyani olmasdan faoliyatni amalga oshirish huquqini, istisno tariqasida, berish;

– mahkumlarni «elektron nazorat» qilishni ta'minlovchi axborot texnologiyalarini joriy etgan holda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish; – jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyatidan tushadigan mablag'lar mazkur sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va talab yuqori bo'lgan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga yo'naltirilish;

– jazoni ijro etish muassasalari bozor kon'yunkturasi va o'z faoliyatining xususiyatlarini hisobga olib, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun shartnoma (erkin) narxlarini (tariflarini) va rentabelligini mustaqil belgilash;

– jazoni ijro etish muassasalari tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish narxlarini (tariflarini) shakllantirishda o'z ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va ishlab chiqarish bo'linmalarini texnik qayta jihozlash xarajatlarini, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish-texnik bazasini modernizatsiya qilish orqali mahkumlarni mehnati samaradorligini yanada oshirish choralari ko'zda tutildi.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, buni jazoni ijro etish faoliyati bilan bog'liq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda hamda jazoni ijro etish muassasalarida qiynoqqa solish, shafqatsiz va g'ayri insoniy e'ki qadr-qimmatni kamsituvchi harakatlarning oldini olish borasida qilingan chora-tadbirlarda yaqqol ko'rish mumkin. Tadbirkorlik huquqi huquq tarmog'i sifatida tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisidan iboratligi barchamizga ma'lum. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati jazoni ijro etish tizimida ham o'z o'rniga ega. Jazoni ijro etish tizimida hozirgi kunda 39 ta ishlab chiqarish faoliyati mavjud bo'lib, ularning 22 tasi sanoat ishlab chiqarishga, 17 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib ushbu yo'nalishlar orqali tadbirkorlik faoliyatini olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lgan jazoni ijro etish faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 316-son qaroriga binoan jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyati, ular tomonidan nomenklatura bo'yicha va pul bilan ifodalanadigan ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiylikdan chiqariladi. Ushbu qaror Jazoni ijro etish muassasalarining tadbirkorlik faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati berildi. Jumladan, 2022 yilning 6 oyi davomida jazoni ijro etish koloniyalarining ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi: Iyun oyida jami 16 mlrd. 894,2 so'mlik, yil boshidan esa 61 mlrd. 534,9 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, may oyiga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 6 mlrd. 247,6 mln. so'mni tashkil etadi. Ya'ni: 5 mlrd. 319,3 mln. so'mlik pishgan g'isht, 11 mlrd. 254,2 mln. so'mlik ohak, 1 mlrd. 292,9 mln. so'mlik keramzit, 2 mlrd. 934,6 mln. so'mlik temir-beton mahsulotlari, 1 mlrd. 702,4 mln. so'mlik tosh plitalar, 220,5 mln. so'mlik quruq qurilish qorishmalari, 5 mlrd. 378,4 mln. so'mlik metall mahsulotlari, 5 mlrd. 775,3 mln. so'mlik mebel, 610,4 mln. so'mlik duradgorlik, 15 mlrd. 105,5 mln. so'mlik tikuvchilik, 1 mlrd. 855,8 mln. so'mlik poyabzal, 6 mlrd. 22,7 mln. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilib, 4 mlrd. 62,9 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi.

Jazoni ijro etish muassasalarini tadbirkorlik faoliyatidan shug'ullanishidan asosiy maqsad foyda olish emas. Bir so'z bilan aytganda tijoratni maqsad qilib qo'ymagan. Q.B. Qodirovning fikricha, mahkumlarni mehnatga jalb etishdan asosiy maqsad ularni ijtimoiyfoydali faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat va bu vositalarni qo'llashda, mahkumlarning mehnatidan daromad olish maqsadi bo'lmasligi kerak. Ushbu yondashuvga qo'shilgan xolda mahkumlar mehnatidan foyda emas balki ularni mehnat orqali tarbiyalash asosiy maqsad bo'lishi kerak. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyatjoriya kodeksining 7-moddasining 2 qismida mahkumni ahloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bu ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qilish ko'rsatib o'tilgan.

Shu bois, Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mehnatga layoqatli 18 202 nafar mahkumlarni 12 400 nafari yoki 68,1 foizi mehnatga jalb etildi. Mahkumlarning o'rtacha oylik ish haqqi esa bugungi kunda 850 ming so'mni tashkil etmoqda. Mehnatga layoqatli

mahkumlarning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida, jami 2013 ta yangi ish o'rni yaratilib, 2274 nafar mahkumlarning bandligi ta'minlandi. Jumladan: mebel sexida 109 ta, AKFA eshik va romlar sexida 29 ta, yog'och o'ymakorlik sexida 28 ta, ohak-keramzit sexida 75 ta, terini qayta ishlash sexida 20 ta, temir-beton sexida 55 ta, tosh sexida 100 ta, g'isht mahsulotlari sexida 736 ta, polietilen qop sexida 55 ta, koptok sexida 150 ta, bo'yoq cho'tkasi sexida 255 ta, tikuvchilik sexida 305 ta, metall sexida 10 ta, parrandachilikda 14 ta, baliq ko'lida 5 ta, sabzavot ikresi sexida 10 ta, jalyuzi pardalari sexida 10 ta, boshqa sexlarda 47 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Agar Jazoni ijro etish tizimiga oid milliy qonunchiligimiz normalarini tahlil etish, ularda mavjud kolliziya va huquqiy bo'shliqlarni aniqlasak bundanda ijobiy natijalarga erishamiz. Shu o'rinda, Yurtboshimizning ko'magi bilan Jazoni ijro etish muassasalari tadbirkorlik faoliyatini olib borishi natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan: birinchidan, Jazoni ijro etish muassasalari insonlar tushunchasida faqat jazolarni ijro etish uchun emas mahkumlarni qayta tarbiyalashga ham xizmat qilayotganini guvohi bo'lishmoqda; ikkinchidan, mahkumlar bo'sh vaqtlarini sermazmun o'tkazishi va oilasini jazoni ijro etib turib ham boqish imkoni berilib ular oilasi oldidagi burchini bajarishga ko'maklashilmoqda; uchinchidan, jinoyatlarni oldini olishda mahkumlarni mehnatga jalb qilish orqali ularni qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirmoqda zero, jinoyatning asosiy sababi bu ishsizlikdir. Shu sabab mahkumlarga Jazoni ijro etish muassasalarida hunar ta'limi yo'lga qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Mandal'yan. "Chastnye tyurьmy: biznes ili rabstvo?". <http://russian-bazaar.com/ru/content/15969.htm>.
2. Chastnye tyurьmy SShA - Istoriya SShA (ushistory.ru).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lgan jazoni ijro etish faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 316-son qarori. <https://lex.uz/docs/4823562>.
4. 2022 yil Jazoni ijro etish Departamenti 6 oylik hisobotidan.
5. YuLDAShev Dj.X. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLANING FUQAROLIGI BILAN BOG'LIQ MASALALARNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 4. (2020), B. 38-43.
6. Ilimbayev S. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari. Vol. 1 No. 3 (2022): Results of National Scientific Research. 182 B. <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/index>